
BILASIZMI?



Bilasizmi?

O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi bir qator soliqlardan ozod etiladi

Prezident tomonidan imzolangan Qonun (O'RQ-857, 18.07.2023 y.) bilan Soliq kodeksining 483-moddasiga qo'shimcha kiritildi.

Shunga ko'ra, 2026 yil 1 yanvargacha O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi, uning hududiy bo'linmalari, "O'zbekiston Professional futbol ligasi" jamoat birlashmasi, O'zbekiston futbol hakamlari markazi va professional futbol klublari quyidagi soliqlarni to'lashdan ozod etiladi:

barcha turdagi soliqlarni (bundan ijtimoiy soliq mustasno);

o'zi jalb qilgan chet el mutaxassislari va futbolchilarining daromadlaridan to'lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini;

O'zbekistonga olib kiriladigan, O'zbekistonda o'xshashi ishlab chiqarilmaydigan sport asbob-uskunalari va inventari, translyatsiya qilish uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar, inventar va texnika, farmakologiya tovarlari, sport oziq-ovqatlari, futbol (futzal) maydonlari uchun sun'iy o'tlar, shokpad, granulalar, maxsus yelimlar va maxsus professional sport kiyim-boshlari, transport vositalari, shu jumladan maxsus transport vositalari uchun qo'shilgan qiymat solig'ini.

Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Raxmonov Iskandarbek Dilshodjon o'g'li - Farg'ona shahar adliya bo'limi bosh maslahatchisi

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-08-03 18:58:19